
“Piyozchilik” mahallasida “Obod mahalla – obod xonadon –obod ko‘cha” dasturi doirasida keng ko‘lamli qurilish, bunyodkorlik, obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Shu kunlarda “Piyozchilik” mahallasidagi har bir ko‘cha, xonadonda obodonlashtirish, shuningdek, ichimlik suvi hamda elektr energiyasi ta‘minotini yaxshilash bo‘yicha jadal ishlar olib borilmoqda. Dasturga ko‘ra, hududda 2 ta yangi transformator o‘rnatish, 9,5 km elektr tarmog‘ini tortish va 370 dona temir-beton tayanch ustunlarini o‘rnatish rejalashtirilgan. Hozirda 230 dona temir-beton ustunlari hamda Faxr ko‘chasiga quvvati 160 kVA bo‘lgan bir dona yangi transformator punkti o‘rnatildi. Mazkur ishlar natijasida hududdagi 120 dan ortiq aholi xonadonlarida elektr ta‘minoti yaxshilanadi.

2024-03-14 15:16:57